

O'RTA ASRLAR ARAB TILSHUNOSLIGINING RIVOJLANISHI VA BU DAVRDA FE'L SO'Z TURKUMIGA OID AYRIM MULOHAZALAR

Dilafro'z Otaxanova,

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o'zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.18843752>

Annotatsiya. Ushbu maqola o'rta asrlar arab tilshunosligining rivojlanishi va bu davrda fe'llar tadqiqi rivojiga o'z hissasini qo'shgan olimlar va ularning yozgan asarlari tahliliga bag'ishlanadi. Dastlab Sibavayhning "Al-Kitob" asarida fe'llarning yorilish prinsiplari, so'ngra Al-Farisiyning "Kitabu-l-hujjati li-l-qurroi-s-sab'ati" asaridagi fe'l va fe'liy omillar hamda Mahmud Zamaxshariyning "Al-Mufassal" asari va undagi "fe'l bobi"ning Sibavayhning "Al-Kitob" asari bilan qiyosiy tahlili keltirib o'tiladi.

Kalit so'zlar: Mahmud Zamaxshariy, Al-Farisiy, "Al-Mufassal", "Kitabu-l-hujjati li-l-qurroi-s-sab'ati", Sibavayh, "Al-Kitob", fe'l, o'rta asrlar.

Аннотация. Данная статья посвящена развитию арабского языкознания в средние века, а также анализу трудов учёных, внесших вклад в исследование глагола в этот период. Вначале рассматриваются принципы классификации глаголов в труде Сибавейха «Аль-Китаб», затем анализируются глагол и глагольные факторы в произведении Аль-Фариси «Китаб аль-худжжа ли-ль-курра ас-саб'а», а также приводится сравнительный анализ раздела о глаголах в книге Махмуда Замахшари «Аль-Муфассаль» с книгой Сибавейха «Аль-Китаб».

Ключевые слова: Махмуд Замахшари, Аль-Фариси, «Аль-Муфассаль», «Китаб аль-худжжа ли-ль-курра ас-саб'а», Сибавейх, «Аль-Китаб», глагол, средние века.

Abstract. This article is devoted to the development of Arabic linguistics in the Middle Ages and to the analysis of the works of scholars who contributed to the study of verbs during this period. First, it examines the principles of verb classification in Sibawayh's Al-Kitab, then analyzes the verb and verbal factors in Al-Farisi's Kitab al-Hujjah li al-Qurra al-Sab'ah, and finally presents a comparative analysis of the "chapter on the verb" in Mahmud al-Zamakhshari's Al-Mufassal with Sibawayh's Al-Kitab.

Keywords: Mahmud al-Zamakhshari, Al-Farisi, Al-Mufassal, Kitab al-Hujjah li al-Qurra al-Sab'ah, Sibawayh, Al-Kitab, verb, Middle Ages.

Kirish. Ma'lumki, o'rta asrlar V-XV asrlarni o'z ichiga qamrab oladi. Arab tilshunosligi aynan mana shu davrda rivojlana boshladi. Bir qator olimlar, tilshunoslar, tarixchilar bu jarayon arab xalifaligining O'rta Osiyo va bir qator boshqa hududlarni bosib olganligi bilan boshlanganini ta'kidlaydilar.

Aslida o'rta asrlarda yuz bergan voqealar nafaqat arab tilshunosligining, balki butun dunyo ilm-fanining taraqqiy etishiga turtki bo'ldi. Tarixshunos olimlar ayrim manbalarda o'rta asrlar tarixini ikki qismga, ayrim manbalarda esa uch qismga bo'ladi. "O'rta asrlar tarixi" kitobida o'rta asrlar quyidagi uch davrga ajratiladi[1:4]:

1. Ilk o'rta asrlar. Ilk o'rta asrlar davri V-XI asrlarni o'z ichiga oladi
2. Rivojlangan o'rta asrlar. Rivojlangan o'rta asrlar davri XI-XV asrlarni qamrab oladi.
3. So'nggi o'rta asrlar. So'nggi o'rta asrlar davri XVI-XVIII asrlarni qamrab oladi.

Ilk o'rta asrlardayoq arab xalifaligi O'rta Osiyoni bosib oldi va ajam bo'lgan xalqlarga o'zining tili, dini va e'tiqodini singdira boshladi. Shundan so'ng arab tiliga

bo'lgan qiziqish ortib, asarlar arab tilida yozila boshlandi. Zamaxshariyning "Al-Mufassal", "Asosu-l-balog'a", "Muqaddamatu-l-adab"; Farobiyning "Fanlar tasnifi", Ibn Sinoning "Kitobu-l-milh fi-n-nahv", "Kitobu lisoni-l-arab", "Asbobu xuduti-l-huruf" kabi tilshunoslikka bag'ishlangan asarlar shular jumlasidandir.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. An'anaviy arab grammatikasi shakllanishi uzoq yillar davom etdi. Arabshunos olim D.V.Frolov "Теория предлогов в традиционной арабской грамматике" kitobida yozishicha: "Arab grammatikasining shakllanishi uch katta davrni o'z ichiga oladi:

- 1) Arab grammatikasining paydo bo'lishi va uning qoidalarini ishlab chiqish davri (VIII asr o'rtalari va X asr boshlari).
- 2) Arab grammatik maktablar faoliyatini o'rganish va tahlil qilish davri (X-XII asr)
- 3) Arab grammatikasini ma'lum va qat'iy tartibga solish hamda qomusiy yoritish davri (XIII-XV asr)[2:32].

D. V. Frolov bu fikri bilan nafaqat an'anaviy arab grammatikasi shakllanish davrini uchga bo'ladi, balki o'rta asr arab tilshunosligining rivojlanish bosqichlarini ham belgilab beradi. Bu davrda ko'plab olimlar arab tili nahv va sarf ilmi rivojiga o'z xissasini qo'shdi va arab tili grammatikasiga bag'ishlangan bir qator asarlar yaratdi. Jumladan, Xalil ibn Ahmad Farahidiyning "Kitabul-ayn" (كتاب العين), Sibavayhning "Al-Kitob" (الكتاب), Mahmud Zamaxshariyning "Al-Mufassal" (المفصل), hamda Al-Farisiyning "Kitabu-l-hujjati li-l-qurroi-s-sab'ati" (كتاب الحجة للقرآن السبعة) asarlari arab tilshunosligidagi eng qimmatli manbalar hisoblanadi.

Maqolada olimlarning asarlarini, xususan Mahmud Zamaxshariyning "Al-Mufassal" Sibavayhning "Al-Kitob" asarlaridagi fe'llarni tadqiq etishda qiyosiylik, ilmiy xolislik, tizimlilik (sistemalilik), xronologik, grammatik taqqoslash, tarixiy-tizimlilik usullaridan foydalanildi.

Tahlillar va natijalar: Sharqshunos olimlar fikriga qo'shilgan holda, o'rta asr tilshunosligini umumiy uchta davrga ajratish maqsadga muvofiq:

1. VIII asr o'rtalari va X asr boshlarida arab tilshunosligi. Bu davrda arab tili grammatikasini shakllantirishiga qaratilgan ilk harakatlar ko'zga tashlandi. Bu davrda ko'plab arabshunos olimlar tomonidan grammatik asarlar yaratila boshlandi. Bu davrda arab tili grammatikasiga o'z asarlari bilan ulkan hissa qo'shgan olimlar sirasiga Xalil ibn Ahmad va uning shogirdi Sibavayhni kiritish mumkin.

Dastlab arab tili sohasida ko'zga tashlanadigan grammatik tadqiqotlarni olib borgan olim Xalil ibn Ahmad Farahidiy bo'lgan. U Basra tilshunoslik maktabining yorqin namoyondalaridan biri hisoblangan. Garchi Xalil ibn Ahmadgacha arab tili sohasida bir qator ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan bo'lsada, ularning ilmiy qiymati u darajada baland bo'lmagan.

Xalil ibn Ahmad an'anaviy arab tilshunosligi metodikasiga asos solgan birinchi olim sifatida e'tirof etiladi. U arab tilida unilarni bildiruvchi harakatlarni tizimlashtirdi va

arab alifbosiga hamza belgisini qo'shdi. Bundan tashqari u o'zining "كتاب العين" (Kitabul-ayn) kitobi bilan lug'atchilik maktabiga asos soldi.

Xalil ibn Ahmadning bir qancha arabshunos olimlar yetishib chiqishiga xizmati katta bo'lgan. Xususan, arab tili grammatikasi asoschisi deya e'tirof etiladigan, asli kelib chiqishi forslarga borib taqaladigan buyuk olim Sibavayh ham shunday olimlar jumlasidandir. Farahidiyning "Kitabu-l-ayn" asari leksikografiya uchun muhim manba bo'lish bilan bir qatorda uning shogirdi Sibavayhning "Al-Kitob" (الكتاب) asarining yaratilishiga asos bo'ldi. "Al-Kitob" asari arab grammatikasi haqidagi eng bebaho asarlardan biriga aylandi. [3:483–485]

Garchi Farahidiyning "Kitabu-l-ayn" asari leksikografik asar bo'lsada, bu asarda fe'llarni lug'atda berish tartibining yangi usulini ko'rish mumkin. Biz bilgan lug'atlarda [4:701] fe'llar alifbo tartibida berilgan bo'lib, unda tog'ri va notog'ri fe'llar ketma-ket tartib qilingan bo'lsa, Farahidining "Kitabu-l-ayn" asarida esa dastlab tog'ri fe'llarning keyin esa notog'ri fe'llarning, xususan "misol" fe'llarining tartiblanganligini ko'rish mumkin. Sibavayhning "Al-Kitob" asari bilan arab tili grammatikasiga katta hissa qo'shdi. U o'zigacha yozilgan asarlarga asoslanib, arab tili grammatikasining birinchi tizimli taqdimotini yaratdi. O'z ishi uchun Sibavayh "Grammatiklar imomi" laqabini oldi.

Sibavayh o'zining asarida mavzularni bitta guruhga umumiy qilib bermay, balki, asarida dastlab, fe'llarni keltiradi, undan keyin fe'llarga doir barcha mavzular, fe'llarni nasb, jazm holatida keltiruvchi yuklamalar, noto'g'ri va to'g'ri fe'llar, illatli harflar, ikki tomonlama noto'g'ri fe'llar va fe'lga oid bo'lgan so'zlar va ularning umumiy tasnifini keltirib o'tadi. Sibavayh Basra maktabining vakili bo'lganligi sabab u ham boshqa Basra maktabi nomoyondalari singari so'zlar fe'l so'z turkumidan kelib chiqqan degan nazariyani ilgari suradi. "Ishtiqoq" masalasida fe'llarni asosiy deb bilganligi uchun ham Sibavayhi o'zining asarini fe'l bobidan boshlaydi. Undan keyin esa, ism va harf so'z turkumlarini keltiradi.

Sibavayhning "Al-Kitob" asari arab tilshunosligida mustahkam nazariy baza hisoblanadi, u uzoq yillar mobaynida o'zgarmasdan keldi va ananaviy arab tili grammatikasining asosi sifatida tan olindi.

2. X-XII asrlar arab tilshunosligi. Bu davr arab tilshunosligi Basra va Kufa maktablarining rivojlanishi va Movarounnahrda ilk nahv va sarf maktablarining paydo bo'lishi bilan xarakterlanadi. Bu davrda mashhur arab tilshunoslari Al-Farisiy va uning shogirdi Ibn Jinniy, Abu Usmon al-Maziniylar o'zlarining grammatik asarlari bilan nom qozonganlar. Al-Farisiy arab tili grammatikasiga bag'ishlab bir qator asarlar yaratdi. Shunday asarlardan biri كتاب الحجة للقرءاء السبعة to'liq nomi الحجة asari bo'lib unda arab tili nahv va sarf qoidalari o'z ifodasini topgan. Bu asar arab mamlakatlarida ham juda mashhur bo'lib, arab tilshunoslari ko'p murojaat qiladigan asarlar sirasiga kiradi. Bu kitobning ahamiyati va Al-Farisiyning nahv ilmi borasidagi qarashlari bilan Saudiya Arabistoni mamlakati Ummu-l-Quro universiteti arab tili va adabiyoti fakulteti 2-bosqich

magistranti Karima bint Ahmad ibn Tohir al-Basharning 379 betda iborat “ آراء أبي علي ” nomli ilmiy risolasida yaqindan tanishish mumkin.

Al-Farisiy o‘zidan oldingi va zamondosh tilshunoslarning ilmiy qarash va fikrlariga qo‘shilib, aksariyat hollarda ma’qullagan bo‘lsada, ayrim munozarali masalalarda esa u asosan Qur’on oyatlariga tayanib o‘z fikrida sobit turgan. Shuningdek, bu davrda arab tilining shakllanishi bevosita Movarounnahr o‘lkasi olimlari bilan ham bog‘liq. Sababi bu paytga kelib, Movarounnahr o‘lkasida nahv va sarf ilmi borasida zabardast allomalar yetishib chiqqan va bu sohada qimmatli asarlar yozib qoldirganlar. Jumladan, Zamaxshariyning “Al-Mufassal-fi-n-nahv”, “Al-Harokot”, “Asasu-l-balog‘a”, Umar Jundiyning “Al-Iqlid” asari, tarixda Zamahshariyning izdoshi nomi bilan tanilgan Al-Mutarriziyning “Al-Misbah fin-nahv”, “Al-Iqna’u fi-l-lug‘at”, Muhammad Al-Muiziyning “Tasrifu-l-af‘al”, Hamididdin Daririyning “Muqaddamatu-d-Daririyy” va Abdurahmon Al-Jomiyning “Sharh Mulla” asarlari shular jumlasidandir[5].

Xususan, bu davrda yaratilgan arab tili grammatikasiga bag‘ishlangan va yirik asar bu Zamaxshariyning “Al-Mufassal” asaridir. Bu asarda ism, fe‘l, harf so‘z turkumlari ketma-ketligida berilgan. Zamaxshariy ism so‘z turkumini 12 faslga, fe‘l so‘z turkumini 10 faslga, ism so‘z turkumini esa 23 faslga bo‘lgan.

Mahmud Zamaxshariy o‘zining “Al-Mufassal fin-nahv” asarini Sibavayhning Al-Kitob asaridan ilhomlanib yozgan bo‘lsada, bu asar tuzilish jihatdan Sibavayhning asaridan butkul farq qiladi. Bu ikki asar o‘rtasidagi asosiy farq shundaki, Sibavayh o‘z asarini fe‘llar bilan boshlagan bo‘lsa, Mahmud Zamaxshariy o‘zining asarini ism so‘z turkumi bilan boshlaydi. Buning asosiy sababi arab tili leksikasida ism so‘z turkumi so‘zlari ko‘p qismni tashkil qiladi. Har ikki asarda fe‘llarning yoritilish prinsiplariga kelsak, Sibavayhning asarida fe‘l so‘z turkumi yoritilishida dastlab, fe‘lning uchta shakliga bo‘linishi (o‘tgan zamon, hozirgi-kelasi zamon va buyruq fe‘llari) berilgan. Undan so‘ng har bir keltirilgan mavzuga doir yuklamalar, grammatik xususiyatlar ularning gaplarda ishlatilishi umumiy tarzda keltirib o‘tiladi. Masalan, “Al-Kitob” asarida hozirgi-kelasi zamon fe‘li dastlab mavzu sifatida yoritilib, uning orqasidan hozirgi-kelasi zamonda ishlatiluvchi yuklamalar, fe‘lning hozirgi-kelasi zamonda nasb va jazm holatlarida kelishi, nasb va jazm holatlarida ishlatiluvchi yuklamalar, modal fe‘llar, felning istak mayli va shart mayillari singari mavzular ketma-ket keltirilib o‘tiladi. Jumladan, fe‘lning o‘tgan zamoni ifodalanganida, uning mutloq o‘tgan zamonda bajarilmagan ish-harakatini anglatish uchun kelgan “لم” (lam) yuklamasi ma’no jihatdan o‘tgan zamon fe‘li mavzusida yoritilishi kerak bo‘lgan bo‘lsa, bu yuklama hozirgi kelasi zamon fe‘llaridan so‘ng jazm yuklamalari qatorida ifodalanadi. Umuman olganda Sibavayhning asarida fe‘llarga doir mavzu keltirilganda fe‘llar bilan birga qo‘llaniluvchi yuklamalar predloglar va fe‘lning aynan biror-bir zamoniga oid mavzular ham ketma-ket keltirib o‘tiladi. Zamaxshariyning asarida esa, dastlab fe‘llarning uchta zamoni sanab o‘tiladi keyingi mavzularda esa,

xususan, fe'llarni jazm va nasb holatiga qo'yuvchi yuklamalar fe'l bobida emas, aksincha, harf so'z turkumi bobida batafsil va keng yoritiladi. Bundan ko'rinadiki, Sibaveyhning "Al-Kitob" asariga qaraganda Zamaxshariyning "Al-Mufassal" asarida arab tili grammatikasi umumiy tizimlashtirilgan tartibda beriladi.

3. XIII-XV asrlar arab tilshunosligi. Bu davr tilshunosligi oldingi davr tilshunosligidan biroz farq qilib, unda asosan oldingi yozilgan asarlarga sharhlar, traktatlar yozish yoki o'zidan oldingi mashhur nahv kitoblarining muqobilini yaratishga, ularning ayrim qismlarini to'ldirishga e'tibor qaratilgan. Masalan, Andalusiyada ijod etgan Ibn Molikning "Alfiyya" (minglik) asarining yozilishi va bayoni Sibavayhning "Al-Kitob" asariga juda ham o'xshashdir. Bu haqida Qosimova S. Shunday yozadi: "Aynan shu davrda Andalusiya maktabi vakillari faollikni qo'lga oldilar. Ibn Molikning nazmda tuzilgan, Sibavayh uslubini takrorlagan "Alfiya" grammatik asari yaratildi." [6:14].

Bu davrda yaratilgan asarlar ham juda mashhur bo'lib, ular arab tilshunosligi rivojiga katta hissa qo'shgan. Qosimova S. o'z monografiyasida bu davr arabshunoslari haqida quyidagi fikrlarni keltiradi: "Mo'g'ullar bosqinidan so'ng arab tilshunosligini o'rganishga Misr va Suriya olimlari kirishdilar. XIII asrda Ibn Ya'ish, Ibn Hojib. XIV asrda Ibn Hishom, Ibn Aqil, XV asrda Suyotiy kabi tilshunoslar bu borada katta izlanishlarni amalga oshirdilar. Mazkur maktab vakillari o'zidan oldingi davrda faoliyat ko'rsatgan yirik filologlarning tadqiqotlarini sharhlash yoki til me'yorlarini qo'llashni qulay tarzda ifodalash bilan shug'ullanganlar. Albatta, bu katta va mukammal ilmni talab qilgan." [6:14]

Xulosa. Ushbu maqola o'rta asrlar arab tilshunosligida fe'llar tadqiqi va ularning o'rganilishiga bag'ishlangan. Ishimizning obyekti sifatida o'rta asrlarda arab tilida yaratilgan fe'llarga bag'ishlangan ilmiy-grammatik asarlar tanlab olindi. Bunda asarlar sharqshunos olim D. V. Frolovning "Теория предлогов в традиционной арабской грамматике" kitobidagi ilk o'rta asrlarni davrlashtirish (1. Arab grammatikasining paydo bo'lishi va uning qoidalarini ishlab chiqish davri (VIII asr o'rtalari va X asr boshlari); 2. Arab grammatik maktablar faoliyatini o'rganish va tahlil qilish davri (X-XII asr); 3. Arab grammatikasini ma'lum va qat'iy tartibga solish hamda qomusiy yoritish davri (XIII-XV asr)) asosida o'rganildi va o'zaro qiyosiy-tipologik tahlil qilindi. Asarlar orasida eng mashhur va grammatik jihatdan boshqa asarlarga qaraganda fe'llar to'liqroq yoritib berilgan asarlar sifatida Mahmud Zamaxshariyning "Al-Mufassal" hamda Sibavayhning "Al-Kitob" asarlariga alohida urg'u berildi va ulardagi fe'llar bobi o'zaro qiyoslandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. F. Sultonov, F. Bozorboyev. "O'rta asrlar tarixi". O'zbekiston milliy kutubxonasi nashriyoti. Toshkent. – 2007, – 428 b.
2. Акинина О.Г. Арабский язык – М., 2004, –397 с.
3. Асанова Айдайгуль Бегали кызы. (2024). Ал-Фарахиди «Китоб ал-айн» асарининг ахамияти. Инновационные разработки и исследования в образовании, 3 (25), С. 483–485.

4. «Ан-Наъим». Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти. Тошкент. – 2003, – 767 б.
5. Bulgakov B. G. Al-Beruniy hayoti va kitoblari. –Toshkent. – 1972, – 160 б.
6. S.Qosimova. “XI-XIII asrlarda Movarounnahr tilshunoslarining arab grammatik nazariyasi bo‘yicha ilmiy tadqiqotlari”. – Toshkent, 2019. – 145 б.

